

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI

MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA 26-31

Xoliqova Ra'noxon

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,
GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34*

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* 100-102

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* 103-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

YURIDIK FANLARI**INTIZOMIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISh QO'ZG'ATISh HAQIDAGI QAROR,
UNING ShAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR****Komilov Avazbek Bokijonovich,**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Prokuratorlik faoliyati va prokuror nazorati kafedrasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: komilov02011985@gmail.com

Annotation. Mazkur tezisda qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida qo'llaniladigan intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi prokuror qarori va uning mazmuniga qo'yilgan muhim talablar bayon etilgan. Muallifning qarashlariga binoan, ushu qaror huddi prokuror tomonidan chiqariladigan boshqa qaror turlari kabi ham mansabdor shaxslarga, ham fuqarolarga nisbatan qabul qilinishi mumkin bo'lib, prokuror yoki uning o'rinosi tomonidan yakkaboshchilik asosida qabul qilinadi. Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror aniq shahsga qaratilganligi uchun individual ta'sir ko'rsatish hujjati hisoblanadi. Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror intizomiy jazo chorasini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqiladi. Muallifning fikricha, prokuror intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarorni muayyan shaxs tomonidan o'z mehnat majburiyatları aybli tarzda, g'ayriqonuniy ravishda bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi holati aniqlangan hollarda chiqaradi. Shuningdek, tezisda intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqarish asoslari, intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqarishdan oldin aniqlik kiritish zarur bo'lgan masalalar, qarorning shakl va mazmuniga qo'yilgan talablar ham qayd etilgan.

Kalit so'zlar: prokuror nazorati hujjatlari, prokuror qarori, intizomiy qilmish, intizomiy javobgarlik, intizomiy jazo, intizomiy jazo qo'llash muddati.

**DECISION ON INITIATION OF DISCIPLINARY LIABILITY AND REQUIREMENTS
FOR ITS FORM AND CONTENT****Komilov Avazbek Bokijonovich,**

Head of the Department of Prosecutorial activity and prosecutorial supervision of Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, PhD in Law, Associate Professor

Annotation. This thesis outlines the prosecutor's decision to initiate disciplinary action and the important requirements for its content. According to the author, this decision can be made by the prosecutor or his deputy on the basis of sole authority, and it applies to both officials and citizens. The decision to initiate disciplinary action is a document of individual impact, as it is addressed to a specific person. The decision to initiate disciplinary action is considered by an official who has the authority to apply a disciplinary sanction. The author believes that the prosecutor issues a decision to initiate disciplinary action in cases where it is established that a particular person has culpably, illegally or inadequately performed their official duties. The thesis also notes the grounds for issuing a decision to initiate disciplinary action, the issues that need to be clarified before issuing a decision to initiate disciplinary action, and the requirements for the form and content of the decision.

Key words: acts of prosecutorial supervision, prosecutor's decision, disciplinary offense, disciplinary liability, disciplinary punishment, the period of application of disciplinary punishment.

'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 301-moddasiga ko'ra, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishi xodimni intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi [1]. Demak, prokuror intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarorni muayyan shaxs tomonidan o'z mehnat majburiyatları aybli tarzda, g'ayriqonuniy ravishda

bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi (mehnat (lavozim) majburiyatlarining buzilishi) holati aniqlangan hollarda chiqaradi.

Bizningcha, prokuror intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror chiqarishdan oldin quyidagi masalalarga aniqlik kiritishi lozim:

birinchidan, shaxsning harakati yoki harakatsizligida intizomiy qilmish alomatlari mavjudligi,

ikkinchidan, qaysi qonun yoki normativ-huquqiy hujjat talablari buzilganligi,

uchinchidan, agar xodimning o'z mehnat (lavozim) majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi xodimga bog'liq bo'lgan sabablarga ko'ra yuz bergan/yuz bermaganligi (*chunki, xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarish uchun ish beruvchi tomonidan zarur shart-sharoitlar ta'minlanmaganligi, fors-major holatlari va h.k.larda xodimni intizomiy javobgarlikka tortishga yo'l qo'yilmaydi*),

to'rtinchidan, intizomiy jazo qo'llash muddatlari o'tib ketmaganligi,

beshinchidan, intizomiy javobgarlikka tortiladigan shaxslar doirasi to'liq va to'g'ri aniqlanganligi,

oltinchidan, intizomiy qilmish aynan mazkur shaxs tomonidan sodir etilganlik fakti o'z isbotini topganligi,

ettinchidan, intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarorni ko'rib chiquvchi shaxslar (organlar) to'g'ri tanlanganligi.

Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarorga shaxsning intizomiy qilmish sodir etganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar (*tekshirish ma'lumotnomasi, mutaxassislar dalolatnomalari va h.k.*) ilova qilinishi zarur.

Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror, nazarimizda, shakl va mazmuniga ko'ra ma'lum bir talablarga javob berishi zarur. Xususan, qarorda:

- ushbu hujjat chiqarilgan sana va joy, qaror chiqargan shaxsning lavozimi, darajali unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi,

- intizomiy qilmish sodir etgan shaxs, uning egallab turgan lavozimiga oid ma'lumotlar,

- intizomiy qilmish sodir etilgan joy, vaqt va bu intizomiy qilmishning mohiyati, agar aniqlangan bo'lsa, uning natijasida yetkazilgan zarar (ziyon) va uni qoplash majburiyatini yuklash haqidagi prokuror talabi;

- "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun va Mehnat kodeksining tegishli moddalari,

- qarorni ko'rib chiqib, intizomiy jazo chorasi qo'llash vakolatiga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxs haqida ma'lumotlar, qarorni ko'rib chiqish muddati, shuningdek uni ko'rib chiqish natijasi haqida prokurorga yozma xabar berilishi zarurati aks ettirilishi lozim.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 39-moddasiga asosan, intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror intizomiy jazo chorasi qo'llash vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs yoki organ tomonidan ushbu hujjat kelib tushgan kundan boshlab o'n besh kun ichida ko'rib chiqilishi shart. Uni ko'rib chiqish natjalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi[2].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 127, 313-moddasiga asosan ishga qabul qilish huquqi berilgan mansabdor shaxs (yoki organ)ga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Kodeksning 314-moddasiga binoan, intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlanganidan keyin darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi, bunda xodim

vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davr hisobga olinmaydi. Intizomiy jazo intizomiy qilmish sodir etilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay, taftish yoki moliyxo'jalik faoliyatini tekshirish yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra esa, u sodir etilgan kundan e'tiboran ikki yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. Ushbu muddatlarga jinoyat ishini yuritish vaqtinchi kiritilmaydi.

Bundan tashqari, Kodeksning 313-moddasiga asosan, 312-moddada ko'rsatilgan intizomiy jazo chorasi tanlash huquqi ish beruvchiga tegishlidir. Intizomiy jazo chorasi qo'llashda sodir etilgan qilmishning og'ir-engilligi, uning sodir etilishi holatlari, xodimning avvalgi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi[3]. Shu sababli, bizning qat'iy fikrimizga ko'ra, prokuror o'z qarorida mehnat intizomini buzgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo chorasi oldindan aniq belgilab bera olmaydi (*masalan, ish beruvchidan xodimga o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'limgan miqdorda jarima jazosini qo'llashni so'rash mumkin emas*).

Kodeksning 313-moddasiga binoan, xodimga intizomiy jazo chorasi qo'llash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Shunga ko'ra, qabul qilingan qarorning qonuniyligini kafolatlash uchun prokurorning qarori ko'rib chiqilganligi xususida yuborilayotgan yozma ma'lumotga intizomiy jazo chorasi qo'llanilganligini tasdiqlovchi buyruq (*qaror, farmoyish va boshqa hujjatlar*) nusxalari ilova qilinishi lozim. Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori asossiz ravishda rad etilgan yoki ko'rib chiqilmagan taqdirda, prokuror ushbu qarorni ko'rib chiqish uchun yuqori turuvchi organ yoki mansabdar shaxsga (*kerak bo'lsa, yuqori turuvchi prokuror orqali*) o'tkazishi lozim bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025 й., 03/25/1070/0536-сон.
2. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025 й., 03/25/1022/0083-сон.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025 й., 03/25/1070/0536-сон.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.